

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARINING YANGI MA'NAVIY MAKONNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

To'xtarova Shahnoza Xudayberdi qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyat a'zolarining ma'naviy yuksalishida muhim rol o'ynayotgan, doimiy va uzluksiz faoliyat yuritadigan axborot-kutubxona muassasalarining o'rne va ahamiyati haqida batafsil tahlil olib boriladi. Insonlarning ma'naviy taraqqiyoti va madaniyatini rivojlantirishda axborot resurslari va kutubxonalar alohida o'rin tutadi. Shuningdek, mazkur muassasalarning jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarga qanday ta'sir ko'rsatishi, ularning shaxsning dunyoqarashini shakllantirishdagi roli, ijtimoiy yangiliklarga qanday javob berishi o'rganiladi. Axborot-kutubxona muassasalarining o'zgaruvchan jamiyatda yangi texnologiyalar va metodlar orqali o'z faoliyatini yanada takomillashtirishi, ma'naviy qiymatlarni saqlab qolishi va jamiyatning ma'naviy yuksalishiga qanday hissa qo'shishi kabi masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'naviy makon, axborot-kutubxona muassasasi, funktsiya, madaniyat.

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ НОВОГО ДУХОВНОГО ПРОСТРАНСТВА

Аннотация. В данной статье подробно анализируется роль и значение информационно-библиотечных учреждений, которые играют важную роль в духовном развитии членов общества в современности и постоянно ведут свою деятельность. В развитии духовности и культуры людей информационные ресурсы и библиотеки занимают особое место. Также рассматривается, как эти учреждения влияют на социально-духовные процессы в обществе, их роль в формировании мировоззрения личности, а также как они реагируют на социальные новшества. Анализируются вопросы совершенствования деятельности информационно-библиотечных учреждений через новые технологии и методы в меняющемся обществе, сохранение духовных ценностей и их вклад в духовное развитие общества.

Ключевые слова: духовность, духовное пространство, информационно-библиотечное учреждение, функция, культура.

THE ROLE OF INFORMATION-LIBRARY INSTITUTIONS IN SHAPING THE NEW SPIRITUAL SPACE

Abstract. This article provides a detailed analysis of the role and significance of information-library institutions, which play an important role in the spiritual development of society members today and operate continuously and uninterruptedly. Information resources and libraries hold a special place in the development of people's spirituality and culture. The

article also explores how these institutions influence social and spiritual processes in society, their role in shaping an individual's worldview, and how they respond to social innovations. Issues of improving the activities of information-library institutions through new technologies and methods in a changing society, preserving spiritual values, and their contribution to the spiritual development of society are analyzed.

Keywords: spirituality, spiritual space, information-library institution, function, culture.

KIRISH

O'tmish mavjudligini xotiramizga, kelajak esa umidimizga bog'liq. Hozirgi payt esa dunyodagi hamma narsaning tezkor o'zgarishi: inson o'z atrofiga qarab ulgurmasi, allaqachon o'tmishni eslashga majbur bo'ladi, agar shu paytda kelajakka umid qilmasa. Shu tarzda, o'tmish bu xotira, hozirgi payt kuzatish, kelajak esa kutish yoki umiddir. Ushbu tushunchadagi makon faqat shu yerda va shu paytda mavjud bo'lgan abadiyat. Abadiyatda hech qanday o'tkinchi yoki kelajak mavjud emas. Abadiyatda o'zgaruvchanlik va vaqt oraligi yo'q, chunki vaqt oralig'i buyumlarning o'tgan va kelajakdagi o'zgarishlaridan iborat. Abadiyat mavjud narsalarning fikr va harakatlar olamidir. Bizning maqsadimiz har birimiz uchun ma'naviy makon nima ekanligini anglash, u bilan qanday munosabatda bo'lishimizni tushunish, ma'naviy chegaralarni nozik his qilishdir. Har bir insonning makonga oid o'z tasavvurlari mavjud bo'lib, u inson tomonidan amalga oshiriladigan o'zgarishlar bilan birga o'zgarib boradi. Inson ma'naviy makon shakllanishi uchun sharoitlarni o'zi yaratadi. Buning uchun unga bir qator vositalar kerak:

- ma'naviy salohiyat;
- yo'l xaritasiga muvofiq harakat texnologiyasi;
- ijobiy fikrlash orqali shakllangan harakat;
- tug'ilish paytida berilgan va mavjudlik foydasiga ishlash jarayonida orttirilgan ma'naviy qadriyatlar;
- mustaqil ijodiy ishni bajarish;
- ongning ekologik tozaligi.

Ushbu vositalar bilan ishlash insonning ma'naviy makonini doimiy yangilanishiga yordam beradi. Har birimiz o'z ma'naviy makoni bilan qanday ishlashni o'zimiz tanlaymiz. Masalan, uyingizdagi makonni ham biz o'zi

shakllantiramiz: qaysi ishlatilgan elementlarni olib tashlash, devor qog'ozining rangi qanday bo'lishi, ish joyini qayerga belgilash kabi masalalarni o'ylaymiz. Bularning barchasi bizning o'zimizni o'zgartirishimiz, makon elementlari bilan to'g'ri va ongli munosabatda bo'lishimiz uchun qilinadi.

Ma'naviy makon insonning atrof-muhit bilan o'zaro aloqada his qiladigan mohiyatidir. O'z makonimizni sezish orqali biz boshqa makonlarni ham ko'ramiz. Bizni ruhiyatimizga yaqin bo'lgan odamlar makoni ma'naviy makonimizga mos keladi, yuqori tartibdagi makon esa bizni qiziqtiradi. Bizning ma'naviy makonimiz elementlariga mos kelmaydigan makonlar esa o'zaro aloqaga kirishmaydi. Makonning bir xususiyati bor: u o'zining qaytarilishi va bir nuqtadan turib barcha tabiiy, ijtimoiy va boshqa olamlarning yo'nalishlariga bir vaqtda o'tish imkoniyatiga ega. Bu insonning ma'naviy makon texnologiyasidir, u insonning atrof-muhit bilan munosabatini belgilaydi. "Makon faqat dunyoga qarab, unga yuzlanib, tushunilishi mumkin" – deydi Martin Xaydegger. U shuningdek, "ontologiya har doim dunyoning mavjudligini uning makon tasavvurlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga intiladi" deb ta'kidlagan. "Makon – bu sezgir hozirgi vaqtdan qat'iy ajratilgan ma'naviy mohiyatdir" – deydi bir olim. Inson bu mohiyatni atrof-muhit bilan muvaffaqiyatli o'zaro aloqalar qurish uchun vosita sifatida qo'llaydi. Keyingi qadamda, ma'naviy makon vositalari bilan ishlashni kuzatganimizda, tarixiy voqealar xronologiyasida insoniyatning tarixni sezgi bilan bilishiga, insoniyatning mavjudlik makoni sifatida alohida bir dunyoqarashni o'rganishga qaytishiga guvoh bo'lamiz. Shunday qilib, Qadimda insoniyat davrlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglab yetdi, tarix hissi yuzaga keldi va bu yangi tarix makonining shakllanishiga olib keldi. Bu salohiyat va shakllangan qiziqish, insoniyatning mavjudlik hududining geografik chegaralarini kengaytirishga sabab bo'ldi, bu esa yangi bilimlarga, yangi geografik kashfiyotlar epoxasini belgiladi. Ma'naviy makon tizimli ishlashini o'rganishda biz ma'naviy makonning chegaralari mavjudligini angladik.

Ma'naviy makon shaxsga nisbatan ma'naviy jihatdan ustun turadi, u ma'naviy-axloqiy me'yorlar va qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Inson ushbu ma'naviy makondan haqiqiy muammolarni hal qilish uchun tayyor usullarni oladi. Ma'naviyat shaxs shakllanib, rivojlanadigan makondir. Ma'naviy makonning

tarkibiy qismlari quyidagilar bo'lishi mumkin: axloqiy me'yorlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi, ma'naviy madaniyat. L.A. Burnyashevaning fikriga ko'ra, insonning ma'naviy makonda bo'lishi, uning ma'naviy-axloqiy qonunlarga amal qilishi, ma'naviy ehtiyojlarga ega bo'lishi va axloqiy idealarga qo'shilishi demakdir. Ma'naviy makon butun insoniyatni o'z ichiga oladi. Ma'naviy makon faqat hozirgi vaqtda emas, balki o'tmishda va kelajakda ham mavjuddir. O'tgan avlodlarning tajribasi to'planadi va har bir insonning ma'naviy olamida saqlanadi. Faqat vaqt sinoviga chidagan va bir necha avlodlar hayotida o'z ahamiyatini isbotlagan narsa saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida buyuk ajdodlarimiz me'rosi, xalqimizning metin irodasi, milliy tarbiya asosida ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish orqali Uchinchi Rennensans poydevorini yaratish eng dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yangilanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalar qatorida erkin fikrli, zamonaviy va innovatsion ma'naviy makonni yaratish masalasi alohida ahamiyatga egadir.

Yangi ma'naviy makon tushunchasiga Prezidentimizning yuqorida ko'rsatib o'tilgan asarida quyidagicha ta'rif berilgan: "Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda u biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir". Albatta yangi ma'naviy makonni yaratish strategik vazifadan iborat bo'lganligi uchun tahlilimizni "ma'naviy makon" tushunchasidan boshlash maqbulroqdir. Ma'naviy makon jamiyat hayotining barcha jabhalari uchun muhim va ahamiyatli bo'lishi bilan birga bizning tadqiqotimiz nuqtai-nazaridan ham belgilovchi o'rin egallaydi.

Ma'naviy makonni tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ular ma'naviyat, ma'naviy hayot va faoliyat, qadriyatlar, mentalitet, an'analar, urf-odatlar, axloq va axloqiy tushunchalar: ishonch, vijdon, burch, adolat, baxt, go'zallik, (estetik kategoriya), din, madaniyat, falsafa kabilardan iboratdir. Demak, ma'naviy makon tushunchasi o'zining ichki tizimiga ega bo'lgan

birlikdir. Ma'naviy makon tarkibiga kiruvchi elementlar qatorida ma'naviyat eng asosiy tushunchalardan biridir. Ma'naviy makon jamiyatning ma'naviy-axloqiy xayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar mavjud bulib, ushbu jarayonlar unda yuz beradi. Ma'naviy makon jamiyatning manaviy xayoti borligi shakllarini o'ziga qamrab oladi, ma'lum tarixiy davrning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarini aks ettiradi, insonning davr uchun muayyan idealini shakllantiradi va ushbu idealga yetishish shart-sharoitlarini yaratadi.

Ma'naviy makon obyektiv-subyektiv sifatlarga ega bo'lib, inson manaviyat tashuvchisi bo'lganligi uchun uning istaklariga va intilishlariga va aksincha, inson faoliyati ma'naviy makonga bog'likdir. Ma'naviy makon - bu maqsad va manfaatlarga asoslangan faoliyat Amalga oshadigan, g'oyalar va qarashlar, ananalar va e'tikodlar, meyorlar Targ'ib qilinadigan makondir. Ma'naviy makonning dunyoviy tushunchasi antropologik (insonga xos) xususiyatga ega bo'lib, insoniy va umuminsoniy tushunchalar bo'lgan xaqiqat, ezgulik, go'zallik, adolat kabilarga tayanishida namoyon bo'ladi.

Yangi ma'naviy makonni yaratish uchun dastavval, hozirgi globallashuv sharoitida ma'naviyat va ma'rifatga, yoshlarning ahloqiy tarbiyasiga va bilim olishga alohida e'tibor qaratish zarur. Ikkinchidan, "Ommaviy madaniyat" tarzida kirib kelayotgan turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish uchun asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayangan holda faoliyat ko'rsatish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Buning uchun "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlarini va ularni amalga qo'llash uslublarini ishlab chiqish zarurdir. Yangi ma'naviy makonni shakllantirishda "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasini amalga oshirishda ko'pgina madaniy-ma'rifiy muassasalar qatorida axborot-kutubxona muassasalari alohida ijtimoiy vazifani amalga oshiradilar. Axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy vazifalarini aniqlash kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyotidagi asosiy muammolardan biridir. Adabiyotlarda ushbu masala "Axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy roli", "Axborot-kutubxona muassasalarining

ijtimoiy missiyasi” tushunchalari orqali ifodalanib, axborot-kutubxona muassasasining ijtimoiy muassasa sifatida tushunilishining shakllanishiga yordam beradi.

Axborot-kutubxona muassasasi inson faoliyatining bilish, o'zgarish, kommunikativ (o'zaro bog'lovchilik), badiiy, qadriyatli-yo'naltiruvchilik singari barcha jabhalari bilan chambarchas bog'liqdir. Kundalik hayotda axborot-kutubxona muassasasi inson tomonidan tashkil etilgan barcha muassasalar va tashkilotlar bilan o'zaro aloqadorlikda faoliyat olib boradi. Shunga ko'ra, axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy vazifasi (funktsiyasi) muammosi ushbu o'zaro aloqadorlik tizimida aniqlash zarur bo'lgan murakkab masalalardan biridir. “Funktsiya” tushunchasi sotsiologik ma'noda muayyan ijtimoiy institutning yuqoriroq darajadan tashkiliy tizim ehtiyojlariga nisbatan bajaradigan vazifasini anglatadi. Kutubxonashunoslik fanlarida “Funktsiya” tushunchasini yanada aniqlashtirib olish uchun “Axborot-kutubxona muassasasi jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?”, “Jamiyat unga qanday majburiyatlarni yuklaydi?”, “Axborot-kutubxona muassasasi jamiyatga qanday vazifalarni amalga oshirishda yordam beradi?” degan savollarga javob berishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy vazifasi ularning jamiyat oldidagi majburiyatlarini umumlashmasi bo'lib, ijtimoiy institut sifatidagi mohiyatiga mos keladi. Shu bilan birga axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy funksiyalarini ularning texnologik (ishlab chiqarish) funksiyasi bilan chalkashtirib yubormaslik zarur.

TAHLIL VA MUHOKAMA.

Axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy vazifasi obyektga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra ularning ichki chegarasidan tashqaridagi funktsiya bo'lib, jamiyatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Axborot-kutubxona muassasalarining texnologik funksiyasi ta'sir ko'rsatishiga ko'ra kutubxona ichkarisidagi faoliyat bo'lib, uning ma'lum tartibda ish yuritishi va muayyan darajadagi sifatni ta'minlash uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyat axborotlashuvining hozirgi sharoitida axborot-kutubxona muassasalari ijtimoiy vazifalarining asosiy yo'nalishlarini to'g'ri belgilab olish ular faoliyatining asosiy mazmunini, yetakchi shakllarini aniq belgilab olish imkonini

beradi. Bu faqat sohaviy ahamiyatgagina emas, balki umuminsoniy ahamiyatga ham ega bo'lib, axborot jamiyat hayoti uchun moddiy manbalar singari muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqiladigan bo'lsa, axborot-kutubxona muassasalarining jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifalari yanada aniqlashadi.

Hozirgi paytda jahon kutubxonashunosligida axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy vazifalari haqida turlicha fikrlar mavjuddir. Dastlabki davrlarda axborot-kutubxona muassasalarining asosiy vazifasi kitoblar va turli xizmatlarni saqlashdan iborat deb qaralgan. Qadimgi Grek tilidan biblioteke (grekcha- biblio-kitob, theke-saqlanadigan joy) kitob saqlanadigan joy – shundan kelib chiqqan. Keyingi davrlarda ushbu ma'no shunday o'zgarishlarga uchradi, hozirgi paytdagi "Axborot-kutubxona muassasasi" tushunchasi "Kitob saqlanadigan joy" ma'nosini anglatmaydi.

Axborot-kutubxona muassasalarining madaniyat rivojlanishi va uning yutuqlarini targ'ib qiluvchi universal vositadir. Ular hujjatlarda rasmiylashtirilgan barcha madaniy yutuqlarni qamrab oladi. Axborot-kutubxona muassasalari ko'pgina madaniyat muassasalaridan farqli holda har bir foydalanuvchiga individual tarzda yondashuv imkoniyatiga egadir.

Axborot-kutubxona muassasalari ijtimoiylashtirish jarayonida qatnashuvchi boshqa muassasalarga nisbatan bir qancha ustunliklarga egadir. Jumladan, bir tomondan, ularning ushbu jarayondagi ishtiroki vaqt va imkoniyat jihatidan cheklanmagan bo'lsa, ikkinchidan, axborot-kutubxona muassasasi xizmatidan doimiy foydalanuvchilar o'zlari anglagan yoki anglamagan holda ijtimoiylashtirish obyekti bo'lib qoladilar. Shunga ko'ra, axborot-kutubxona muassasasi doimiy va uzluksiz faoliyat ko'rsatuvchi ijtimoiylashtiruvchi institutdir. Axborot-kutubxona muassasalarining asosiy vazifasi ijtimoiy hayotning ijodkor faol subyektlarini shakllantirishdir.

XULOSA

Axborot-kutubxona muassasalari ta'lim va mustaqil ta'lim olish bilan bog'liq bo'lgan, ahamiyati doimo oshib boruvchi rolni bajaradi. Axborot-kutubxona muassasalari insoniyat tomonidan yaratilgan va to'plangan axborotlarni saqlovchi maorif, ta'lim, mustaqil ta'lim tizimidagi muhim bo'g'indir. Ta'limiy jarayonlarni

samarali amalga oshirishda axborot-kutubxona muassasalari ularning axborot saqllovchisi sifatida alohida vazifani bajaradi.

Axborot-kutubxona muassasalari rasmiy ta'limdagina axborot saqllovchi bo'lib qolmasdan uzliksiz ta'lim va mustaqil ta'limning ham samarali vositasi hisoblanadi. Madaniyat, fan, texnikaning eng yangi yutuqlari haqidagi axborotlar bilan ta'minlash orqali axborot-kutubxona muassasalari kishilarning tabiat va jamiyat qonunlari, inson va tabiat o'zaro munosabatlari haqidagi bilimlarini uzluksiz boyitib boradi.

Axborot-kutubxona muassasalarining yangilanayotgan mamlakatimiz hayotidagi roli ularning ijtimoiy vazifalarini qanchalik darajada samarali bajarishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ularning asosiy maqsadi umuman jamiyat hayotiy faoliyatini, xususan, har bir foydalanuvchini alohida maqbul axborot manbalari bilan ta'minlashdan iboratdir.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy vazifalari har bir fuqaroni uning yoshi, jinsi, millati, ma'lumot darajasi, e'tiqodi, dinga munosabati va boshqa ijtimoiy-demografik belgilaridan qat'iy nazar axborotlardan erkin foydalanish huquqini ta'minlashdan iboratdir. Shuning uchun ham axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining asosiy mazmuni jamiyatda mavjud bo'lgan mafkuraviy va siyosiy xilma-xillikni aks ettirishdan iborat bo'lishi kerak. Ushbu sharoitlarni hisobga olgan holdagina axborot-kutubxona muassasalari insosn huquqlari, erkin ma'naviy yuksalish, mamlakatimiz va jahon madaniyati qadriyatlaridan bahramandlik kafolati bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Трофимова Г., Черемисина В. Духовное пространство // Символ науки. 2016. №1-3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/duhovnoe-prostranstvo> (дата обращения: 20.11.2025).
2. Голубева О. Развитие личности в духовном пространстве // Научный журнал КубГАУ. 2016. №118. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-lichnosti-v-duhovnom-prostranstve> (дата обращения: 20.11.2025).
3. Mirziyoyev Sh. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent.: O'zbekiston, 2022. – 416 b.
4. Imomnazarov M., Eshmuxammedova M. *Milliy ma'naviyatimiz asoslari*. – Toshkent.: O'zbekiston faylasuflari milliy hamjamiyati nashriyoti, 2006. – 445 b.
5. Erkayev A. *Ma'naviyat va taraqqiyot*. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2009. – 480 b.



6. Mavrulov A., Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi. – Toshkent.: Fan ziyosi nashriyoti, 2022. – 360 b.